



XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Navbahor tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil I chorak yakuni bo'yicha prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, tuman mahalliy budjetning 2025-yil I chorak yakuni bo'yicha prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag'lar yo'naltirish to'g'risida, tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi komissiya takliflarini ko'rib chiqib hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 23-maydagi 01-12-230/20-01-38/129-sonli xatini inobatga olgan holda, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 23-maydagi 01-12-230/20-01-38/129-sonli xatini inobatga olgan holda Navbahor tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil I chorak yakuni bo'yicha prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan ilovada ko'rsatilgan budjet tashkilotlariga amaldagi budjet tasnifiga rioya qilgan holda mablag'larni ajratilishi ta'minlansin.

2. Mablag' ajratilgan budjet tashkilotlari rahbari ushbu mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlasin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi, tuman G'aznachilik xizmati bo'limi Navbahor tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil I chorak yakuni bo'yicha prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratilgan mablag'larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

Navbahor tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil 1-chorak yakuni bo'yicha prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag'lar

T/r	Tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag'	Maqsadi	Asos
1	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	86 000,0	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.01.2025-yildagi PQ-1-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda tasdiqlangan yo'l xaritasiga asosan Navbahor tumani mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini yaratish maqsadida ko'chalarga kuzatuv kameralari sotib olish, o'rnatish va shu bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlari uchun	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 16.05.2025-yildagi 01-07/129-sonli xati
2	Tuman hokimligiga	14 000,0	Tuman hokimligi balansidagi xizmat avtotransport vositalariga yoqilg'i-moylash mahsulotlari xarid qilish xarajatlari uchun	Tuman hokimligi bosh hisobchisining 23.05.2025-yildagi bildirgisi
JAMI		100 000,0	X	X